

SOME MEDICINAL PLANTS BELONGING TO THE FAMILY OF KOKIOTDOSH

Abdukhalilova Madinakhon

Andijan State Pedagogical Institute, Second Stage Student of Biology

E-mail: madinaxonabdusalilova@mail.ru

Abstract:

In this article, in terms of importance in human activity in the world of plants, the family of sedumides, which belongs to the higher plant division, and some medicinal plants that are considered important representatives of this family and are of great importance in human life in terms of medicinal properties, are presented. it is about plants.

Keywords:

Magnoliophyta, asteridae, bactericidal, laryngitis, bronchiectasis.

Introduction

Ma'lumki, o'simliklar dunyosi tabiatning eng katta boyligi hisoblanadi. Shuning uchun o'simliklar olamini har tomonlama chuqur o'rganish, ulardan dorivor, oziq-ovqat sifatida va boshqa maqsadlarda foydalanish, em-xashak xususiyatini hisobga olishimiz hamda har bir tur o'simlikni ilmiy jihatdan bir-biridan ajrata bilishimiz kerak. Undan tashqari bu o'simliklarning foydali hamda zararli xususiyatlarini bilishimiz va unga e'tibor berishimiz lozimdir[3].

Dunyo olimlarining bergan ma'lumotlariga qaraganda, tabiat ne'matlaridan olinadigan dori-darmonlar kimyoviy sun'iy ravishda olinaligan preparatlardan afzalligi va shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Chunki o'simliklardan tayyorlangan tabiiy dorilar deyarli asoratsiz hisoblanadi. Shu ma'noda, ushbu o'rganilayotgan qoqio'tdoshlar oilasi turlari ham respublikamiz flosida munosib o'ringa ega va o'zining xilma-xil foydali xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.[1]. Qoqio'tdoshlar - Asteraceae oilasiga 13000 ga yaqin turkum, 25000 tur kiradi. O'zbekistonda 21 turkumga oid 566 tur o'sadi. Hayotiy shakliga ko'ra oilada bir va ko'p yillik o'tlar ustinlik qiladi. Daraxt, buta va lianalar nihoyatda kam uchraydi. Gullari savatchalarda o'rnashgan. Ular yer sharining turli xil ekologik sharoitda: cho'llarda, dashtlarda, o'tloqlar, o'rmonlar, qumli, toshloq yerlarda, sho'rlangan tuproqlarda va hattoki suvli muhitda ham o'sadi [2,5].

Qoqio'tdoshlar oilasi sistematikasi:

Yopiq urug'lilar bo'limi – Magnoliophyta

Ikki urug'pallalilar ajdodi - Magnoliopsida

Qoqio'tkabilar ajdodchasi – Asteridae

Qoqio'tnamolar qabilasi - Asterales

Qoqio'tdoshlar oilasi – Asteraceae. [4,6]

Oddiy bo'ymadoron – Bo'ymodaron Asteraceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, ildizlari o'rma'lovchi, simsimon shaklda. Poyasi tik turuvchi, balandligi 20- 80 sm, mayin tuklar bilan qoplangan. Barg yaproqlari lansetsimon, cho'zinchoq, uzunligi 3-15 sm, eni 0,5-3 sm, pastki qismida nuqtali bezchalari bor, ikki yoki uch karra patsimon bo'lingan, asosiga biroz yetmaydi, ko'p sonli (15-30) bir-biridan sezilarli uzoqroq joylashgan birlamchi bo'laklari bor, ular 9-15

ta tishsimon bo'lakchalarga ega. Gul savatchalari poyaning yuqori qismidagi qalqonchalarda to'planadi. Tilsimon gullari 5 ta, rangi oq, kamdan kam hollarda pushti rangda bo'ladi. Urug'lari (pistacha) yassi, cho'zinchoq kumushsimon, kulrang, uzunligi 1,5-2 mm. Iyun oyidan yozning oxirigacha gullaydi: urug'lari iyul-sentyabrda pishib yetiladi.

Ishlatilishi: Bo'ymodaron o'ti yallig'lanishga qarshi va bakteritsid ta'sirga ega. Ular oshqozon-ichak traktining turli kasalliklari, oshqozon yarasi va gastrit uchun damlama va qaynatma shaklida qo'llaniladi. Bu oshqozon va ishtaha ochuvchi choylarning tarkibiga kiradi. Bo'ymodaronning qichitqio't o'simligi bilan birga preparati ichki va tashqi qon ketishida qon to'xtatuvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida buyuriladi. [7,9]

Oqqaldirmoq Asteraceae oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Ildizpoyasi uzun, yer bag'irlab o'suvchi. Gulpoyalari 10-25 sm balandlikda, qipikli, yopishgan, tuxumsimon-lanset, ko'pincha qizg'ish barglar bilan qoplangan. Ildizbo'g'zi barglari gullashdan keyin paydo bo'ladi. Ular uzun bandli, yumaloq, yuraksimon, ko'ndalang o'lchamda diametri 10-25 sm, burchakli, tishlari notekis, terisimon, avval ikkala tomonidan mayin tuklar bilan qoplangan, keyin yuqorida silliq, pastdan oq mayin tukli. Savatchalar yakka, 2-2,5 sm ko'ndalang o'lchamda, gullashdan keyin osilib turadi. Gullari oltin sariq rangda. Pistachalari 3,5-4 mm uzunlikda, oq tuklar bilan qoplangan. Aprel-may oylarida oqqaldirmoq gullaydi, may-iyun oylarida mevalaydi. Barglari dorivor xom ashyo sifatida ishlatiladi. Ildizpoyasi uzun, yer bag'irlab o'suvchi. Gulpoyalari 10-25 sm balandlikda, qipikli, yopishgan, tuxumsimon-lanset, ko'pincha qizg'ish barglar bilan qoplangan. Ildiz bo'g'zidagi barglari gullashdan keyin paydo bo'ladi. Ular uzun bandli, yumaloq, yuraksimon, ko'ndalang o'lchamda diametri 10-25 sm, burchakli, tishlari notekis, terisimon, avval ikkala tomonidan mayin tuklar bilan qoplangan, keyin yuqorida silliq, pastdan oq mayin tukli. Savatchalar yakka, 2-2,5 sm ko'ndalang o'lchamda, gullashdan keyin osilib turadi. Gullari oltin sariq rangda. Pistachalari 3,5-4 mm uzunlikda, oq tuklar bilan qoplangan. Aprel-may oylarida gullaydi, may-iyun oylarida mevalaydi. Barglari dorivor xom ashyo sifatida ishlatiladi.[8].

Ishlatilishi: Oqqaldirmoq barglari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Damlamalar shaklida, shuningdek, bronxit, laringit va bronxoektaz kasalliklarida ko'krak qafasi va terlatuvchi choylari tarkibida qo'llaniladi. Shuningdek, o'pkaning abscess va gangrenasida ishlatiladi. Tashqi tomondan yumshatuvchi, dezinfeksiya va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ho'llanma shaklida qo'llaniladi.

Qo'ytikan – *Xanthium strumarium* L. Asteraceae oilaga mansub bir yillik o't o'simlik, balandligi 120 sm. Barglari yumaloq, asosida yuraksimon. Mevalarda o'ramabarglari cho'zinchoq-ellipssimon, sargish-qo'ng'ir rangga ega bo'lib, to'g'ri, yuqorida ilmoqsimon silliq tikanlarga ega. O'simlik iyul-avgust oylarida gullaydi.

Ishlatilishi: O'simlik xalq tabobatida qalqonsimon bez kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Preparat antiseptik, fungitsid, yallig'lanishga qarshi, kam darajada og'riq qoldiruvchi, terlatuvchi va isitma tushuruvchi ta'sirga ega. Diareya, dizenteriya va siydik pufagining yallig'lanish jarayonlarida barglar, gullar va mevalaridan tayyorlangan (ba'zan ildizlar) damlamasi ichiladi. 1 osh qoshiq maydalangan qo'ytikan o'tini 1 stakan qaynoq suvda 10 daqiqa qaynatiladi. Kuniga 4-6 marta 1/4 stakan ichiladi. Qo'ytikan damlamasi kuydiruvchi

ta'mga ega, shuning uchun uni ehtiyotkorlik 208 bilan ishlatish kerak. Qo'ytilgan bargini sharbati astma, tomoq spazmlarida va bivosilda kasalliklarida ishlatiladi. Skrofulyoz, teri saratoni, lishay, ekzema, husnbuzarlar, toshmalar, eshak emi va terining zamburug' kasalliklarida, o'simlikning damlamasi yoki yangi siqilgan sharbati tashqi vosita sifatida ishlatiladi. Xitoy xalq tabobati shamollash, qalqonsimon bez kasalliklarida, surunkali pielonefritni davolashda o'simlik preparatlaridan foydalanadi. Qo'ytilgan yangi mevalari va urug'lari maydalanadi va ekzema, qichish bilan kechadigan dermatoz, hasharotlar chaqishi, lishay va qichima kasalliklarida teriga surtiladi. O'simlikning quritilgan mevalarini malhami terining zamburug kasalliklarida ishlatiladi.[8,9].

Vatanimizda tabiiy xolda o'sadigan dorivor o'simliklardan oqilona foydalanishda ularning ko'plab o'sadigan joylarini izlab topish, xaritaga tushirish, dorivor mahsulotni yig'ish, quritish va saqlash tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat. Shu sababli, bu kabi o'simliklardan to'g'ri va oqilona foydalanish zarur hisoblanadi va shu bilan birgalikda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish yo'llarini izlab topish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ашурметов О.А., Рахимова Т.Т., Рахимова А.Т., Хикматов Ш.Х. Экология. Тошкент, Чинор ENK", 2008.
2. Зокиров. Қ.З, Жамолхонов. Х.А. Ўзбек ботаника терминологияси масалалари. Тошкент, "Фан" 1996.
3. Зоҳидов Ҳ. Шифо хазинаси. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2000.
4. O'.Pratov., L.Shamsuvaliyeva., E.Sulaymonov va boshq. Botanika. Toshkent. Ta'lim nashriyoti. 2010.
5. Matkarimova A.A., Maxkamov T.X., Maxmudova M.M., Azizov X.Ya., Vaisova G.B. Botanika. - Toshkent: "CO TO PRINT" 2020.
6. I.Tog'ayev. Yuksak o'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. Namangan. Namangan nashriyoti. 2015.
7. M.A.Jo'rayeva. Dorivor o'simliklar atlas. Toshkent. Noshir. 2019.
8. O.K. Xojimatov., X.Q. Haydarov., D.T. Xamraeva., va boshq. O'zbekiston dorivor o'simliklar atlas. Samarqand. SamDU nashriyoti, 2021
9. 4Ahmedov O'., Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar.Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya.Toshkent. Tafakkur-bo'stoni.2018.